



## TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI Q A R O R I

2023 - yil 16 - may

139-14-220-Q/23

Yangihayot tuman hokimligi

### **Toshkent shahar hokimining 2023-yil 11-maydagi 297-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 19-apreldagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlar ajratishni takomillashtirish hamda aholining doimiy daromad manbalarini ko‘paytirishga doir qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 161-sonli qarori, shuningdek, hududlarda aholining daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat bilan shug‘ullanishiga ko‘maklashish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlar ajratishni takomillashtirish hamda Toshkent shahar hokimining 2023-yil 11-maydagi 297-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta’minalash maqsadida,

#### **QAROR QILAMAN:**

1. Toshkent shahar hokimining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 19-apreldagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlar ajratishni takomillashtirish hamda aholining doimiy daromad manbalarini ko‘paytirishga doir qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 161-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida” 2023-yil 11-maydagi 297-14-0-Q/23-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qaroriga muvofiq:

kreditlarni yillik 14 foiz stavkada ajratish tartibi saqlab qolinganligi;

hokim yordamchilarining kredit ajratish bo‘yicha tavsiya berishiga mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining aralashuviga yo‘l qo‘ylmasligi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (X.Tashpulatov), tuman Bank xizmatlari ko‘rsatish markazlari, tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (O.Hushboqov), Savdo-sanoat palatasi tuman bo‘limi, Mahalla va nuroniyarlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (X.Normurotov), Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining tuman bo‘limi (A.Jumaev), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

ajratilgan kreditlarning ularni so‘ndirish grafigiga muvofiq qaytarilishini va muammoli kreditlarni undirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni har oy yakuni bo‘yicha muhokama qilib, mahallalarda kreditlash prognozlarini so‘ndirilmasdan qolib ketgan mablag‘larga mos ravishda kamaytirib borilishi ta’minlansin;

tuman hokimining birinchi o‘rinbosari - Oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash markazi rahbarining dasturlar ijrosini, shu jumladan, ajratilgan kreditlar samaradorligini ta’minalash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida har chorak yakuni bo‘yicha xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashida hisobot berib borishi tashkil qilinsin.

Bunda tumanda dasturlarni amalga oshirishdan ko‘zlangan maqsadlarga erishilishi,

dasturlarning aholi bandligini ta’minalash va daromad manbaini oshirishga ta’siri,

ajratilgan imtiyozli kreditlar samaradorligi, yuzaga kelgan muammoli kreditlar va uning sabablari, muammoli kreditlarni qaytarish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi to‘g‘risida batafsил hisobot berilishi nazoratga olinsin.

4. Tuman hokimligi Matbuot xizmati (N.Hakimova), Savdo-sanoat palatasi tuman bo‘limi ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 19-apreldagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlar ajratishni takomillashtirish hamda aholining doimiy daromad manbalarini ko‘paytirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 161-sonli qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonlarining sodda, xalqchil tilda ommaviy axborot vositalarida va Internet tarmogida keng yoritilishi tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari X.Tashpulatov zimmasiga yuklatilsin.

**Yangihayot tumani hokimi**



**X.Inogamov**